


A. Xaydarov, B.O. Ernazarov

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT MODELLARI

Darslik



**O'ZBEKISTON PESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

Abror Xaydarov, Ernazarov Behzod Ollaberganovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT MODELLARI

Darslik

70311002 - Ijtimoiy tizim va jarayonlaming axborot va psixologik
xavfsizligi mutaxassisligi uchun



Toshkent – 2025

UO'K: 004,33(075)

KBK: 76,01я7

Xaydarov A., Ernazarov B.

Axborotlashgan jamiyat modellari. Darslik. A.Xaydarov,
B.Ernazarov. – T.: “Dimal” nashriyoti, 2025-y. – 192 b.

“Axborotlashgan jamiyat modellari” 70311002 - Ijtimoiy tizim va jarayonlarining axborot va psixologik xavfsizligi magistratura mutaxassisligi uchun (magistratura)da tanlov fanlar turkumiga kiruvchi “Axborotlashgan jamiyat modellari” fanidan o‘quv qo‘llanma ma’ruza mashg‘ulotlarini o‘tkazishga mo‘ljallangan. Mazkur o‘quv qo‘llanma “Axborotlashgan jamiyat modellari” fanning o‘quv dasturida ko‘rsatilgan maqsad va vazifalarga muvofiq ishlab chiqilgan. Qo‘llanmada axborotlashgan jamiyat modellarining mohiyati, mazmuni va xususiyatlari zamonaviy sotsiologiyaning dolzarb yo‘nalishi sifatida talqin qilingan. O‘quv qo‘llanma magistr talabalar hamda tadqiqotchilar, profesor-o‘qituvchilar, shuningdek muammo bilan qiziquvchi keng o‘quvchilar jamoasiga havola etiladi.

Mas’ul muharrir:

A.J. Xolbekov – professor sotsiologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:

E.X. Zaitov – dotsent, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);

B.A. Farfiyev – professor sotsiologiya fanlari doktori.

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Milliy universiteti Kengashining 2024- yil -sonli bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-686-89-4

© A.Xaydarov, B.Ernazarov, 2025

© “Dimal” nashriyoti, 2025

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI	4
1-MAVZU. AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	5
2-MAVZU. GLOBAL AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAKLLANISHI.....	19
3-MAVZU: AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAKLLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI.....	32
4-MAVZU. AXBOROTLASHGAN JAMIYAT QURISHNING MAVJUD MODELLARI.....	43
5-MAVZU. INSON SALOHIYATI (POTENSIALI) AXBOROTLASHGAN JAMIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI SIFATIDA.....	60
6-MAVZU: INSON SALOHIYATI(POTENSIALI)NI RIVOJLANISH OMILLARI	70
7-MAVZU: AXBOROTLASHGAN JAMIYAT VA DAVLAT	84
8-MAVZU. AXBOROTLASHGAN JAMIYATNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY MUAMMOLARI	103
9-MAVZU. AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA TEXNOKRATIYA	120
10-MAVZU. AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING JAHON IQTISODIYOTIGA TA’SIRI	136
11-MAVZU. AXBOROTLASHGAN JAMIYAT IJTIMOIY- PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGI	152
12-MAVZU. AXBOROTLASHGAN JAMIYAT VA SIYOSIY AXBOROT OLISH MADANIYATI.....	169
GLOSSARIY	181
ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	185

SO‘Z BOSHI

Mazkur darslik O‘zbekiston Milliy universiteti “Sotsiologiya” ta’lim yo‘nalishi magistratura talabalariga o‘qiladigan “Axborotlashgan jamiyat modellari” fani dasturida ko‘zda tutilgan mavzular bo‘yicha ma’ruza materiallari, nazorat savollari, test topshiriqlari, mustaqil ta’lim mavzulari, shuningdek glossariyni o‘z ichiga olgan va u zamonaviy axborotlashgan jamiyatning modellarini sotsiologik tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ushbu kurs o‘qitilishidan maqsad, magistrantlarda global axborotlashgan jamiyat shakllanishining nazariy asoslari, axborotlashgan jamiyat shakllanishining muammolari va asosiy boskichlari, axborotlashgan jamiyat qurishning mavjud modellar, inson saloxiyatini axborotlashgan jamiyatni rivojlantirishning asosi sifatida tahlil qilish, axborotlashgan jamiyat va davlat, axborotlashgan jamiyatni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, axborotlashgan jamiyatda texnokratiya, axborotlashgan jamiyatning jaxon iqtisodiyotiga ta’siri, axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy-psixologik xavfsizlik, axborotlashgan jamiyat va siyosiy axborot olish madaniyati kabi mavzularda nazariy va amaliy bilim, tushuncha va ko‘nikma hosil kilishdan iborat.

1-MAVZU. AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

Reja

- 1.1. Global axborotlashgan jamiyatning tavsisi
- 1.2. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi axborotlashgan jamiyat shakllanishining asosi sisatida
- 1.3. Axborotlashgan jamiyat va axborot xavfsizligi muammolari

Kalit so‘zlar: *globallashuv, internet, axborot, axborotlashgan jamiyat, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, global axborotlashgan jamiyat, yagona axborot maydoni.*

Har bir davrning mazmun-mohiyatini, rivojlanish qonuniyatini to‘g‘ri anglab va tushunib yetishda davrning mazmunini belgilab beruvchi jarayonlarni, tushunchalarning mazmunini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda globallashuv, shuningdek undagi axborotning o‘rnini to‘g‘risidagi muammodan ko‘ra ko‘proq moda bo‘lgan va munozarali mavzuni topish qiyin. Ularga o‘nlab konferensiya va simpoziumlar, yuzlab kitoblar, minglab maqolalar bag‘ishlangan. Bu haqda olimlar, siyosatchilar, ishbilarmonlar, din arboblari, san’atkorlar, jurnalistlar suhbatlashishmoqda va bahslashishmoqda. Axborot nima? Globallashuv nima? Global axborotlashgan jamiyatning mohiyati nimada? Manbalari va taqdim etilish shaklidan qat’iy nazar shahslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar axborot deb aytildi. Davlatlar, millatlar mayjud ekan axborot maydonida raqobat va kurash bo‘lishi tabiiy. Har bir suveren davlat, mamlakat o‘zining axborot siyosatini olib borishga majbur. Bu muayyan axborotlashgan jamiyat modellarini o‘rgapnishni dolzarb qilib qo‘yadi. Jamiyatdagi axborot jarayonlari bilan bog‘liq muammolar majmuasini o‘rganadigan fan ijtimoiy informatika ham bu omilni hisobga oladi. Jonli munozaralarning mavzusi tom ma’noda hamma narsa - globallashuv nima, qachon boshlanganligi, jamiyat hayotidagi boshqa jarayonlar bilan u qanday bog‘liqligi, uning bevosita va uzoq muddatli oqibatlari qandayligi va hokazolar. Biroq, fikrlar, yondashuvlar va baholarning ko‘pligi ushbu fundamental masalaning barcha jihatlari va tomonlari ochib berilganligini, uni bundan keyin o‘rganmaslik kerakligini anglatmaydi. Aksincha, aksincha, uni puxta o‘rganish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobjiy va salbiy

tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Ingliz sotsiologi Z.Bauman hazilomuz qayd qilganidek, globallashuv bu biron bir odam chetlab o'tishi mumkin bo'lmagan fatal jarayon. Uningcha, "Globallashuv g'oyasining eng chuqur ma'nosi-bu dunyoda sodir bo'ladigan hamma narsaning noaniq, boshqarib bo'lmaydigan va mustaqil tabiat; qandaydir markaz, boshqaruv pulti, direktorlar kengashi yoki bosh kontoraning yo'qligi". Afsuski, globallashuv kimdir uchun baxt keltiradi, kimdir uchun kulfat. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinalining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tez tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi – tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tusayli erishilmoqda. Globallashuvning atributlaridan biri dunyoning tobora yagona axborot makoni doirasiga kirib borayotganida hamdir.

Jaxon miqyosida axborot kommunikatsiya texnologiyalari dunyo tamadduni rivojiga ulkan hissa qo'shishi bilan birga, murakkab va ziddiyatli xarakterga ega bo'lgan jarayonlarni xam keltirib chikarmokda. XXI asrda axborot resurslari ijtimoiy, madaniy, ma'naviy soxadagi ma'lumotlar orkali turli yosh va toifadagi shaxslarning ongiga ta'sir kilib, ularning dunyokarashi, ijtimoiy xarakteri xamda murakkab tafakkurini shakllantirish vositasi sifatida real voqelikka aylandi. Shu sababli shakllanayotgan axborotlashgan jamiyatda ma'naviyatda xam turli xil o'zgarishlarni inobatga olish muxim ahamiyat kasb etmokda. Shu sababli xam xozirgi davr jaxon mikyosida globallashuv jarayoni kuchaygan, insoniyatning axborotlashgan jamiyat boskichiga utishi tobora chukurlashib borayotgan davr bulib, butun insoniyat, shu jumladan xalqimiz xam ma'naviyatga salbiy ta'sir kursatishi mumkin bulgan turli mafkuraviy taxdidlar ostida yashamokda. Ushbu jarayonda jamiyatimiz ma'naviy xayotiga turli-tuman axborot, ilm-fan, madaniyat va san'at, yangi sivilizatsiyalar, texnologiyalarning kirib kelishi bilan birgalikda turli zararli goyalar va mafkuralar taxdidining vujudga kelishi bugungi kunda shunday globallashuv sharoitida ma'naviyat

muammosini, ma'naviy xususiyatlarimizni saklash xamda ma'naviy tarbiyani rivojlantirish masalalarini dolzARB vazifa sifatida kun tartibiga kuymokda.

Axborotlashgan jamiyatning bir qismi bulgan kibermakonga ijtimoiy reallikning, axborotlashgan jamiyatning vokeligi sifatida yondashilgan tadqiqotlarga M.Kastels, M.Maklyuen va A.Ye.Voyskunskiy, T.Nabet kabilarning ishlarini kiritish mumkin. D.Bell, A.Turen, E.Toffler, Z.Bjezinskiy, Y.Masuda kabi olimlarning tadqiqotlarida jamiyat virtuallashuvi jarayonining axborotlar okimi bilan bog'liqligi aks etib, tahlil jarayonida axborotlashgan jamiyatning konseptual asoslari va uning nazariyalariga asos solingan. Ushbu yondashuv vakillari fikriga ko'ra, axborot insonlarning dunyokarashiga ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lib, jamiyatning tafakkuri transformatsiyasi shakllanishiga sharoit yaratadiva yangi ijtimoiy tabaqa va guruhlar hosil bo'lishiga olib keladi.

Axborotlashgan jamiyat sifatli ma'lumotlarning ko'pligi va uni tarqatish vositalari bilan ajralib turadi. Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi mehnat unumdorligi va ishlab chikarish jarayonining samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarish sohasiga axborot texnologiyalarini joriy etish jarayoni bilan bog'liq. Axborotlashgan jamiyat an'anaviy sanoat tuzilishidan farq qiladigan yangi ijtimoiy tuzilma sifatida ta'riflanadi.

Jamiyatning hozirgi xolati, M.Kastelsning so'zlariga ko'ra, o'tish davri. U axborot asriga yoki tarmoqli jamiyat davriga kirmoqda, uning o'ziga xos xususiyati davlatlarni, ijtimoiy institutlarni va shaxslarni bir-biriga bog'laydigan axborot tarmoqlari batamom shakllanishida bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, hamma olimlar xam yangi ijtimoiy tuzilma sifatida ko'rgan jamiyat rivojlanishining axborot modeliga o'tish g'oyasini qo'llab-quvvatlamaydilar. Ularning fikricha, jamiyatda ro'y berayotgan barcha o'zgarishlar shunchaki jamiyatda qadimdan karor topgan munosabatlarni kompyuterlashtirish va axborotlashtirishdir. Ular zamonaviy jamiyatda axborotning ahamiyati aniq oshganligini tan olsalar xam, axborotlashtirishni yangi turdag'i jamiyatni tashkil etish vositasi deb bilishmaydi.

F. Uebster o'z tadqiqotida axborot jamiyatining eng mashxur nazariyalarini tankidiy tahlil kiladi. U hatto o'zini axborotlashgan jamiyatda yangi ijtimoiy haqiqatni ko'rmaydigan skeptiklardan biri deb biladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ayrim ilmiy adabiyotlarda axborot

asridagi yangi avlod vakillari keksa avlod odamlariga nisbatan butunlay boshqacha ruhiyat va fikrlash tarziga ega bo‘lishini ta’kidlamokda. Bundan tashqari, yangi avlod odamlarida miyaning tuzilishi xozirgi mavjud bo‘lganidan farq qilishi ehtimoldan yiroq emas. Charlz Darvinnin evolyusiya nazariyasiga ko‘ra, inson miyasining rivojlanishi uning atrof-muhit o‘zgarishiga moslashishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu umumiy tarz bugungi kunda xam, axborotlashtirish jarayonining jadal rivojlanishi va global axborot jamiyatini shakllantirish sharoitida amal kiladi. Hozirgi paytda jamiyatning axborot soxasida eng tub va tezkor o‘zgarishlar ro‘y berayotganligi sababli, inson miyasi uning tuzilishini tashkil etishdagi yetarli o‘zgarishlar orqali ushbu o‘zgarishlarga moslasha boshlaydi. Bu hodisa tabiiydir. Extimol, u yakin yillarda yanayam o‘sadi. Chunki inson tabiatidagi bu o‘zgarishlar juda tez, amalda odamlarning bir avlodni hayoti davomida ruy beradi. Inson tabiatni uzoq vaktdan beri bunday tub o‘zgarishlarni boshdan kechirmagan va ularning ahamiyati jihatidan aniq nutqning paydo bo‘lishi fenomeni bilan taqqoslash mumkin.

Ammo zamonaviy axborot inqilobining ko‘lami xam insoniyat tarixida misli ko‘rilmagan hodisadir. Ularning axamiyati va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlari hali yetarli darajada o‘rganilmagan va tushunilmagan. Aytish kerakki, axborotlashgan jamiyat – ishchi-xodimlarning aksariyati ma’lumotni, ayniksa uning eng yukori shakli - bilimni ishlab chikarish, saqlash, qayta ishlash va sotish bilan shug‘ullanadigan jamiyat hisoblanadi. Shu bilan birga jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining ushbu bosqichi quyidagilar bilan tavsiflanadi: axborot, bilim va axborot texnologiyalarining jamiyat xayotidagi rolini oshirish; axborot texnologiyalari, aloqa vositalari va axborot maxsulotlari va xizmatlari ishlab chikarishda band bo‘lganlar sonining ko‘payishi, ularning yalpi ichki maxsulotdagi ulushining ko‘payishi; telefon, radio, televiedenie, Internet, shuningdek an‘anaviy va elektron ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda jamiyatni axborotlashtirishning o‘sishi; global axborot makonini yaratish: odamlarning samarali axborot aloqalari; ularning jaxon axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari; ularning axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo‘lgan extiyojlarini qondirish va boshqalar.

Albatta, zamonaviy dunyoda yashab, biz doimo ommaviy axborot vositalari bilan to‘qnash kelmoqdamiz. Ular bizning kundalik hayotimizda shu kadar mustahkam o‘rnashganki, biz atarsiz o‘z

xayotimizni tasavvur ham qila olmaymiz. Zamonaviy jamiyat hayotida Internetning ahamiyatini past baholab bo‘lmaydi. XX asr o‘rtalarida boshlangan axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning mutlaqo yangi turi - axborotlashgan jamiyatning shakllanishiga asos yaratdi. Internet jamiyat taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Hozirgi dunyoda internetning insonga ta’siri juda yoshligidan boshlanmoqda va butun hayot davomida davom etmoqda. Internet odamlarning ongini shakllantirish, ularning didi, qarashlari, odatlari va afzalliklarini tarbiyalash funksiyalarining muxim qismini o‘z zimmasiga oldi. Hech kachon shaxsan u yoki bu muammoga duch kelmagan odam internet imkoniyatlari tufayli ijtimoiy xayotning eng xilma-xil ko‘rinishlari bilan tanishishga muvaffaq bo‘lmoqda.

Biz aynan internet tufayli ma’naviyatning va madaniyatning tanazzul darajasining o‘sib borishi guvohi va ishtirokchisiga aylандик va agar bu jarayon to‘xtatilmasa, zamonaviy sivilizatsiya fojasi muqarrar bo‘lib kolishini tushunamiz. Butunjahon Interneti - bu favqulodda tanlov erkinligini beradi, lekin u foydalanuvchini o‘z sheriklari davrasida “yopishi” mumkin. Internet xam yaratishi, xam yo‘q kilishi mumkin. Internet axborot texnologiyalarini tubdan o‘zgartirdi. Internet - bu axborot va taxliliy materiallar arsenali, ammo bugungi kunda u axborot urushlarining quroliga aylanmokda

Internetning shaxsiy rivojlanishga ta’sirini o‘rganish uchun tadqiqotlar o‘tkazilganida, uning natijasida yoshlarning aksariyati Internetning asl ijobjiy va eng muhimmi, salbiy ta’sirini tushunishmasligi ayon bo‘ldi. Bugungi kunda Internetdan nafaqat dunyoviy maqsadlar, biznes, tanishish, muloqot uchun, balki ma’naviy maksadlar uchun ham faol foydalanilayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Albatta, Internet yana ko‘plab stereotiplarni buzadigan va xayotimizning turli soxalarida juda ko‘p sonli inqiloblarni amalga oshiradigan kuchli ixtiro deb aytish mumkin. Bugungi rivojlanayotgan axborot jamiyatida nigilizmda o‘z ifodasini topgan ma’naviyat inqirozi o‘zini ijtimoiy-madaniy sohada namoyon etmoqda. Zamonaviy inson duch kelgan ma’naviyat inkirozi inson xayoti sharoitining keskin yaxshilanishi fonida rivojlanib bormokda, bu ma’lum bir paradoksdir. Ushbu takomillashtirish jamiyat xayotini texnikalashtirish va ma’lum ma’noda zamonaviy ta’limining natijasi bo‘ldi.

Texnika, o‘z navbatida, odamlar orasidagi begonalashuvning kuchayishiga va jamiyatning ma’naviy axvolini pasayishiga olib keladi

va ta'lif odamning ma'lum madaniy muhitga qaramligini keltirib chikaradi. Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy axborotlashgan jamiyat shakllanishi sharoitida ma'naviyatning kundalik hayot ufqiga kaytishi tuyulishi mumkin bo'lgan darajada xavfsiz emas; bu jarayon akliy va ruxiy tuzilmalarini o'zgartirish imkoniyati bilan bog'lik, chunki bu tajriba asosiy axlokiy qadriyatlarni rad etishga olib kelishi mumkin bo'lgan madaniyat va sivilizatsiya ideallari, tamoyillari va qadriyatlarini ham tug'dirishi mumkin. Bularning barchasi inson hayoti dunyosining asoslarini buzadi, uni odatiy qo'llab-quvvatlanishi, hayotiy qadriyatlardan va bunday sharoitda o'zini saqlab kolish qobiliyatidan mahrum bo'ladi.

Shunday qilib, axborotlashgan jamiyat - fuqarolarning ko'pchiligi axborotni, ayniqsa uning eng yuqori shakli - bilimni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlab chiqarishda band bo'lganlar sonining ko'payishi, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish.

Jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining ushbu bosqichi quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- jamiyat hayotida axborot, bilim va axborot texnologiyalarining rolini oshirish;
- axborot texnologiyalari, aloqa va axborot mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqarishda band bo'lganlar sonining ko'payishi, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish;
- telefon, radio, televidenie, internet, shuningdek, an'anaviy va elektron ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda jamiyatni axborotlashtirishni oshirish;

Axborotlashgan jamiyat quyidagilarni ta'minlaydigan global axborot makonini yaratishni ham taqozo qiladi:

- odamlarning samarali axborot o'zaro ta'siri;
- ularning global axborot resurslariga kirishishlari;
- ularning axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish;

elektron demokratiya, axborot iqtisodiyoti, elektron hukumat, raqamli bozorlar, elektron ijtimoiy va iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirish.

Global axborot jamiyati yagona axborot maydoni sifatida tavsiflanadi. Jamiyatni axborotlashtirishni yangi axborot texnologiyalarini yaratish va ulardan foydalanish asosida fuqarolar, tashkilotlar, davlatlar, jamiyatning barcha tuzilmalarining axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va

ilmiy-texnikaviy jarayoni sifatida qarash mumkin. Axborot jamiyatni masalasini tizim sifatida ko'rib chiqsak, shuni ham ta'kidlash kerakki, jamiyatning axborot muhiti axborot resurslarining yig'indisi, axborotni, axborot infratuzilmasini shakllantirish, tarqatish va undan foydalanish tizimidir. Zamonaviy axborot jamiyatni tizim sifatida quyidagi xususiyatlarga ega: tranzitivlik, yuqori harakatchanlik, yuqori muloqot (kommunikativlik) qobiliyatlari, axborot manbalarining keng doirasiga ochiq kirish, axborotga yuqori darajada bog'liqlik, dunyonи ramziy tushunishga asoslangan tizimli fikrlash, axborotni iste'mol qilish va uni sharhlashga moyillik tendensiyasi. Bu xususiyatlarning mavjudligi bir tomonidan ijobiy tendensiyalarni o'z ichiga oladi, madaniyatning texnologik tarkibiy qismining tez-jadal o'sishini ta'minlaydi, ikkinchi tomonidan salbiy-axborotga yuqori darajada qaramlik, axborotni iste'mol qilish va talqin qilish tendensiyasi zamonaviy axborot jamiyatini axborot urushini olib borish texnologiyasi yordamida ma'lum mansaatlarga erishish uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan axborot maydoniga bog'liq holga qo'yadi. Hozirgi dunyoda xalqaro munosabatlar ishtirokchilarining axborot maydonida hatti-harakati bunga misol bo'la oladi. Masalan, bir tomonidan NATO va Yel (ichki ziddiyatlari bilan), boshqa tomonidan Rossiya tomonidan Ukraina atrofidagi voqealar borasida olib borilayotgan axborot urushi bunga misol bo'la oladi. 2020 yil yanvarida Qozog'istonda bo'lib o'tgan voqealar ham qozoq rasmiylarining ta'kidlashlaricha, shu jumladan axborot bosimi ta'sirining natijasidir. Taassufki, 2022 yil iyun-iyul oylarida Qoraqalpog'istonda bo'lgan tartibsizliklar ham ma'lum ma'noda muayyan axborot bosimi tufayli ro'y bergani aniq.

Qator mutaxassislarning hozirgi axborot jarayonlarida quyidagi asosiy tendensiyalar mavjud: birinchidan, ommaga ta'sir o'tkazishning an'anaviy axborot va targ'ibot usullari o'rnni bosadigan aloqa jarayonlari hajmi ortib bormoqda; ikkinchidan, turli xil axborot tashuvchilarining o'zaro bog'liqligi (chambarchasligi) mavjud - bosma, eshitish, vizual yo'nalishlarning hammasi integratsiyalashgan aloqa tizimlari paydo bo'lmoqda; uchinchidan, shunga o'xshash jarayonlar ommaviy axborot vositalari emas, balki ommaviy axborot tizimlari deb ataladigan axborot komplekslari paydo bo'ladigan va rivojlanadigan ommaviy axborot jarayonlari darajasida gavdalanoqda. Ular axborot xavfsizligi uchun tegishli modelni yaratish uchun imkoniyatlar yaratadigan axborot makoniga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni

ajratib ko'rsatish mumkin, deb hisoblaydilar. Birinchidan, axborot maydoni axborot urushi, axborot qurollari va axborot xavfsizligi tushunchalari uchun jamiyatni axborot qurollaridan va axborot urushidan himoya qilish texnologiyasi sifatida asos bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, axborot maydoni doimo dinamikada. U bir xil holatda turishi amri mahol. Natijada, doimiy axborot ustunligiga erishish juda qiyin, shuning uchun vaqtinchalik axborot ustunligiga erishish mumkin bo'lgan tarzda ishlatilishi kerak. Uchinchidan, axborot maydoni murakkab tuzilgan. U geterogen (turli-tuman) bo'lib, u doimo e'tiborni tortadigan mexanizmlarni va shaxsning e'tiborini axborot makonining ushbu nuqtasidan chalg'itadigan maxsus vositalarni (to'siqlarni) o'z ichiga oladi. To'rtinchidan, axborot maydoni universaldir: zamonaviy inson faoliyatining har qanday sohasi unga tayanadi, shuning uchun axborot kanallari orqali faoliyatning har qanday sohasiga ta'sir qilish uchun noyob imkoniyatlar mavjud. Beshinchidan, axborot maydoni axborotni qurish, qayta ishlash va tarqatishning milliy o'ziga xos usullariga ega.

Jamiyatni global axborotlashtirishning yana bir natijasi yagona axborot makonining shakllanishidir. Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda "axborot makoni"ning qat'iy ta'rifi mavjud emas. Hozirgacha "axborot makoni" iborasi nihoyatda keng qo'llanilsa-da, ilmiy tushuncha sifatida deyarli ishlab chiqilmagan. Umuman olganda, aytishimiz mumkinki, bu tushuncha qattiq ilmiy atama sifatida emas, balki ko'proq metafora sifatida ishlatiladi. Masalan, axborot makonini axborot, axborot resurslari va infratuzilma bilan "qoplangan", "qamrab olingan" hudud deb hisoblash mumkin, uning doirasida barcha subektlar bu makonning istalgan nuqtasida axborotni qabul qilish, uzatish va boshqa barcha manipulyatsiyalar qilish uchun bir xil imkoniyatlarga ega. Shubilan birga, axborot makoni bu shunchaki ommaviy axborot vositalari (OAV) faoliyat yuritadigan hudud emas, balki OAV uchun unda yashovchi odamlar tomonidan ahamiyatli bo'lgan, real, hisoblangan, potensial auditoriyani tashkil etuvchi hududdir. Yuqoridaq barcha ta'riflar shuni ko'rsatadi, "axborot makoni" tushunchasi hozirgi vaqtda axborotning mavjudligi bilan bir-biriga bog'langan turli hodisalarni, shuningdek uni ishlab chiqaruvchilar va undan foydalananadiganlarni anglatadi. Qanday bo'lmasin, axborot makonining rivojlanish darajasi iqtisodiyotga, mudosaa qobiliyatiga va siyosatga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Odamlarning xulq-atvori, ijtimoiy-siyosiy

vaziyatning shakllanishi va ijtimoiy barqarorlik ko‘p jihatdan ana shu darajaga bog‘liq.

Axborot fazo(makoni)si (infosfera) axborotni yaratish, o‘zgartirish va iste’mol qilish bilan bog‘liq bo‘lgan inson faoliyati sohasi bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi: shaxs va jamoat ongi, axborot resurslari, ya’ni: axborot infratuzilmasi (tashkiliy tuzilmalar, texnik vositalar majmui), dasturiy ta’minot va axborotni shakllantirish, saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun boshqa ta’minlash), real axborot va uning oqimlarini o‘z ichiga oladi. Axborot makoni, axborot aylanadigan va iste’mol qilinadigan makondir. Yagona axborot makonining asosiy ob’ektlari quyidagilardan iborat: axborot resurslari – tegishli axborot tashuvchilarda qayd etilgan ma’lumotlar, ma’lumotlar va bilimlarni o‘z ichiga olgan hujjatlar massivlari, ma’lumotlar bazalari va ma’lumotlar banklari, barcha turdagи arxivlar, kutubxonalar, muzey kolleksiyalari va boshqalar; axborot infratuzilmasi, shu jumladan: a) yagona axborot makonining ishlashi va rivojlanishini ta’minlovchi tashkiliy tuzilmalar, xususan, axborotni toplash, qayta ishlash, saqlash, tarqatish, uzatishni izlash. Ko‘makechi qism - ilmiy, uslubiy, axborot, lingvistik, texnik kadrlar, moliyaviy ta’minot; b) axborot va telekommunikatsiya tuzilmalari - hududiy taqsimlangan davlat va korporativ kompyuter tarmoqlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va maxsus maqsadlardagi va umumiy foydalanish tizimlari, tarmoqlar va ma’lumotlarni uzatish kanallari, axborot oqimlarini almashtirish va boshqarish vositalari; v) axborot, kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari; d) media tizimlari.

Ba’zi mualliflar boshqa bir komponentlarni axborot makonining bir qismi sifatida ko‘rib chiqishni taklif qilishadi: axborot texnologiyalari, aloqa vositalari, axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar, axborot mahsulotlari va xizmatlari bozori; alohida davlatning axborot maydoni va jahon ochiq tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tizimi; axborotni himoya qilish (xavfsizlik) tizimi; axborot huquqi tizimi. Bunday yondashuvni ham shartli qabul qilsa bo‘ladi, chunki sanab o‘tilgan komponentlar juda sifatli tafsiflar, shartlar, belgilar bo‘lib, ular mavjud bo‘lganda tizim ob’ektlarining yig‘indisi yagona axborot makonini tashkil qiladi. Axborot makonini rivojlantirish haqida gapiradigan bo‘lsak, internetlashuv va globallashuvni asosiy yo‘nalishlar sifatida alohida ta’kidlash lozim. Internetga kelsak, dunyo o‘rgimchak to‘ri hali keng, mutloq qamrovli bo‘laman bo‘lsa-da, ammo u bizning bugungi

hayotimizga allaqachon katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon biz tasavvur qilganingizdan ham tezroq ketmoqda. U texnik ixtirodan inson hayotining barcha jahbalariga ta'sir ko'rsatadigan mutloq hodisaga aylandi. Shubhasiz, internet texnologiyalarining rivojlanishi jamiyat uchun ko'plab istiqbollarni ochib, turli sohalarda sifatli yutuq bo'lishiga umid baxsh etadi. Globallashuvga kelsak, bu jarayonning rivojlanishi allaqachon global axborot jamiyati va yagona axborot maydonli jamiyat haqida gapirishga imkon bermoqda. AQSh, Kanada, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Angliya, Italiya kabi rivojlangan davlatlar yagona axborot makonini yaratishni XXI asrning ustuvor yo'nalishlaridan biri deb bilgan holda, global axborot infratuzilmasini yaratishda hamkorlik qilishga kelishib olganlari bejiz emas. Turgan gap, ushbu davlatlarning bu geosiyosiy niyatlari muayyan tartibga solinishiga umid qilishdan boshqa chora yo'qday.

Ma'lumki, globallashuvning asosiy belgilaridan biri milliy chegaralarning axborot yuzasidan o'z ahamiyatini yo'qotib borishidir. Har qanday mintaqani iqtisodiy, axborot va xavfsizlik jihatidan jahon hududining ajralmas bo'lagiga aylantirgan bu jarayon har bir millat oldiga o'zligini saqlab qolish, davlatlar uchun esa manfaatlar to'qnashuvida o'z o'rmini topish masalasini ko'ndalang qo'yamoqda. Millatni millat, davlatni davlat sifatida saqlanib qolishida mamlakatning iqtisodiy-siyosiy qudrati bilan bir qatorda uning global axborot maydonidagi o'z manfaatlarini himoya qilishi, turli axborot xurujlariga qarshi tura olishi, bir so'z bilan aytganda, axborot xavfsizligining qay darajada ta'minlangani ham muhim ahamiyat kasb etadi. Juhon sahnida o'zining yetarli mavqeiga hali ega bo'Imagan, xalqaro siyosatga ta'sir etishning keng imkoniyatlarini qo'lga kiritib ulgurmagan, endi rivojlanib kelayotgan mustaqil davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham bu masala dolzarbdir. Chunki aynan o'tish davrida axborot xurujlari, ijtimoiy ongni egallab olishga qaratilgan tajovuzlar, mamlakatning axborot boshqaruvini izdan chiqarishga urinishlar doimiy va xatarli tahdid bo'lib kelgan. Hayotning barcha sohalarida strategik resurs, hal qiluvchi vosita va pirovard maqsadga aylangan axborot bugun dunyoni boshqarmoqda desak mubolag'a bo'lmash.

Jamiyatning ilgarilanma taraqqiyoti hamma vaqt ham axborot rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Insoniyat jamiyatining rivojlanishi istiqboli ong, bilim va tafakkurning ahamiyati isbot talab qilmaydi. Bularning barchasini boshqacha so'z bilan axborot dunyosi

deb ham atashimiz mumkin. Jamiyat hayotining qaysi sohasi bo‘lmasin, kim axborotga ega bo‘lsa, u o‘zaro munosabatlarda ustunlikka ega bo‘ladi. Buni aksioma (isbot talab etmaydigan fikr, hukm) deb atashimiz mumkin. Aytaylik, jangovar harbiy operatsiya samaradorligi aniq razvedka ma’lumotlariga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Axborotga ega bo‘lish ustunlikka ega bo‘lish demakdir. Ko‘proq va aniqroq ma’lumotga ega bo‘lgan odamni qurollangan, axborotsiz, hech narsadan xabari bo‘lmasan odamni esa qurolsiz odamga o‘xshatish mumkin. Qurollangan va qurollanmagan odamlar kurashida kim g‘olib chiqishi oldindan ayondir. Nemis olimlarining “Muhim axborotga ega bo‘lish – hokimiyatga ega bo‘lish; muhim axborotni nomuhimidan ajrata bilish yanada ko‘proq hokimiyatga ega bo‘lish; muhim axborotni o‘ziga ma’qul bo‘lgan ruhda tarqata olish imkoniyatiga ega bo‘lish yoki u haqida ko‘pchilikka hech narsa ma’lum bo‘lmasligiga erishish ikki karra hokimiyatga ega bo‘lishni anglatadi”, - degan fikrlari diqqatga sazovordir. Har qanday mamlakat milliy xavfsizlik tizimida axborot xavfsizligi muhim o‘rin egallaydi. Hayotiy muhim mansaatlar, ular qaysi sohada bo‘lmasin, axborot omili bilan bog‘liqdir. Jumladan, siyosiy muhitda kuch omillari emas, balki axborot omili tobora katta ahamiyat kasb eta boshladi. Mamlakatlarning tashqi siyosiy muvaffaqiyatlari nafaqat iqtisodiy va harbiy qudrat bilan, balki ularning jahonda kechayotgan asosiy informatsiyaviy va madaniy jarayonlar ustidan nazoratni o‘rnatishga qaratilgan harakatlari bilan ham belgilanmoqda. Mamlakatlarning mavqelari axborotga egalik qilish, uni sifatli qayta ishlay olish imkoniyatlari bilan bog‘lanmoqda. Boshqacha qilib aytganda, kim axborotga ega bo‘lsa, u jahon siyosatida yetakchilik qilishga da’vo qilishi mumkin. Konfidensial axborotning oshkora etilishi esa uning egasi mavqeiga putur yetkazishi aniq. Dunyodagi yetakchi mamlakatlarida, jumladan AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya va boshqalarda bu sohada katta mablag‘lar sarflanayotganligi ma’lum. Zamonaviy jamiyatlar tovarlar va xizmatlar bozoridagi raqobat elementlaridan biri har doim mavjud bo‘lgan axborot kurashidir. Axborot kurashi deganda, axborot-ma’lumotni o‘z vaqtida, to‘liq olish, uni sifatli qayta ishlashdagi raqobatni tushunish mumkin. Albatta, real hayotda raqobat sog‘lom va nosog‘lom tarzda sodir bo‘lish ehtimoli mavjud. Nosog‘lom raqobat tashabbuskorlari xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlari bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda “taqdirlanishlari” tabiiydir.

Umumiylar ma'noda axborot kurashi quyidagilarni o'z ichiga oladi: zaruriy axborotni egallab olish; olingan axborotni qayta ishlash; axborot kanallarini noqonuniy foydalanishdan himoya qilish; raqiblarini dezinformatsiya qilish (chalg'itish, yolg'on ma'lumot berish); raqiblar axborot tizimini ishdan chiqarish yoki uning amal qilishini izdan chiqarish; raqiblar axborotini yo'q qilish, uni soxtalashtirish, o'g'irlash. Axborot xavfsizligini ta'minlashda bu omillarni hisobga olish kerak bo'ladi. Axborot maydonidagi kurash jamiyat hayotining ajralmas qismi deyishimiz mumkin. Zamonaliviy jamiyatda ishlab chiqarish, fan-texnika va hokazo sohadagi yangilik(masalan, "nou-xau")lar, odatda, patentlanadi, sertifikatlashtiriladi. Demak, sog'lom raqobat sharoitidagi axborot musobaqasida ularni rasman sotib olish mumkin, axborotga qonuniy ravishda egalik qilish mumkin. Afsuski, hayotda hamma vaqt ham unday bo'lavermaydi. Shunday ekan, axborot xavfsizligi muammosi dolzarb bo'lib qolaveradi. Har bir mamlakatda qabul qilingan axborotlashgan jamiyatning modeli uchun ham axborot xavfsizligi muhim jihat bo'lib hisoblanadi.

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

1. Axborot nima, uni qanday ta'riflash mumkin?
2. Globallik va globallashuvning mohiyatini aytib bering.
3. Axborotlashgan jamiyat vujudga kelishining sharoitlari deganda nimani tushunasiz?
4. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ta'riflab bering.
5. Yagona axborot makonining ob'ektlarini aniqlab bering.
6. Axborot kurashi nima?
7. Globallashuv va axborotlashgan jamiyat.
8. 2.Axborotlashgan jamiyatning asosiy belgilari va xususiyatlari.
9. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi axborotlashgan jamiyat shakllanishining asosi sifatida.
10. Axborot xavfsizligiga tahdidlar va ularning oldini olish vositalari

Test:

1. "Globallashuv" atamasi ilk marotaba qachon va kim tomonidan tilga olingan edi?
 - A. 1983-yilda, T.Levitt. /
 - B. 1981-yilda, Tomas A.Styuart.
 - C. 1985-yilda, K.Lavlok.

D. 1986-yilda, F.Kotler.

2. "Globalashuv g'oyasining eng chuqur ma'nosi-bu dunyoda sodir bo'ladigan hamma narsaning noaniq, boshqarib bo'lmaydigan va mustaqil tabiat; qandaydir markaz, boshqaruv pulti, direktorlar kengashi yoki bosh kontoraning yo'qligi" – globalashuvning bu ta'rifi kimga tegishli?

A. D.Bell.

B. Z.Bjezinskiy.

C. Z.Bauman. /

D. B.Geyts.

3.Jamiyatdagi axborot jarayonlari bilan bog'liq muammolar majmuasini o'rganadigan fanning nomi nima?

A)Sotsiologiya.

B)Ijtimoiy informatika. /

V)Globalistika.

G)Semantika.

4.Yuqoridagilardan qaysi biri axborot jamiyat uchun xos emas?

A)Jamiyat hayotida axborot va bilimlarning rolini oshirish.

B)Axborot iqtisodiyotining rivojlanishi.

V)Jamiyat aholisining yarmidan ko'pi sanoat ishlab chiqarishi sohasida bandligi. /

G) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi.

5.Axborot jamiyatiga nimalar xos?

A)Aholining 50% dan ortig'i xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lishi /

B)Qishloq xo'jaligini rivojlantirish

V) Mamlakat YalMida axborot mahsulotlari va xizmatlari ulushining o'sishi

G) Yalpi savodxonlik

6.Ishechi-xodimlarning aksariyati axborotni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash, sotish va almashish bilan shug'ullanadigan jamiyat?

A)Axborotlashgan jamiyat. /

B)Sanoatlashgan jamiyat.

V)Agrar jamiyat.

G) Kapitalistik jamiyat.

7. "Axborot" tushunchasiga berilgan ta'rifni ko'rsating:

A) Identifikatsiyalash mumkin bo‘lgan, rekvizitlari ko‘rsatilgan va axborot tashuvchi qurilmalarga joylashtirilgan istalgan ma’lumotlar.

B) Manbalari va taqdim etish shaklidan qat’iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar. /

V) Istalgan manbalardan keladigan ma’lumotlardan foydalanish, ishlov berish va yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan sub’ektlarning faoliyat sohasi

G) Cheklanmagan shaxslar doirasiga mo‘ljallangan bosma, audio va boshqa xabar va materiallar.

8.Ilm-fan, ta’lim, madaniyat va hokazolarni rivojlantirish jarayonida insoniyat tomonidan to‘plangan barcha ma’lumotlarning yig‘indisi nima?

A)Axborot resurslari. /

B)Axborot bilimlari.

V)Axborot texnologiyalari.

G) Kommunikatsiya vositalari

Glossary

Axborot - ularni taqdim etish shaklidan qat’i nazar, shaxslar, ob’ektlar, faktlar, hodisalar, hodisalar va jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi - kompyuter texnologiyalari, telekommunikatsiya uskunlari, ma’lumotlarni uzatish kanallari va axborot tizimlari, axborot oqimlarini almashtirish va boshqarish vositalari, shuningdek, ularning samarali ishlashini ta’minlaydigan tashkiliy tuzilmalar, huquqiy va tartibga solish mexanizmlari majmui.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari - axborotni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash, tarqatish, ko‘rsatish va undan foydalanuvchi manfaatlari yo‘lida foydalanish maqsadida birlashtirilgan usullar, ishlab chiqarish jarayonlari, dasturiy ta’minot, apparat va lingvistik vositalar majmuyi.

2-MAVZU. GLOBAL AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAKLLANISHI

Reja

1. Global axborotlashgan jamiyat konsepsiyalari.
2. Global axborotlashgan jamiyat evolyusiyasi.
3. Global axborotlashgan jamiyatning afzallikkleri va muammolari.

Kalit so‘zlar: *axborotlashgan jamiyat, postindustrializm, global axborotlashgan jamiyat, “axborot infratuzilmasi”, “axborot jamiyati” konsepsiyalari, kompyuterlashtirish, xizmatlar.*

“Axborotlashgan jamiyat” tushunchasi 1940-yillarda kibernetikaning paydo bo‘lishi bilan birga, paydo bo‘ldi. Kompyuterlashtirish ommaviy tus olganda, axborot va raqamli texnologiyalar faol rivojlana boshlaganda bu tushuncha ken tarqaldi. Bu tushuncha amerikalik olim K. Shannon, kibernetika asoschisi N. Viner, D. fon Neyman, ingliz mantiqshunosi va kriptografi A. Tyuring, akademik A. N. Kolmogorov rahbarligidagi sovet matematika maktabi olimlar nomlari bilan bog‘liq. “Axborotlashgan jamiyat”ning yaponcha versiyasi 1961 yilda Kisyo Kurokava va Tadao Umesaolarning suhbatida ilgari surilgan. Keyinroq bu ibora Yaponiya va AQShda 60 yillarda muntazam ishlatila boshlandi. 1992 yildan beri esa bu atama G‘arb davlatlari tomonidan ommaviy ravishda qo‘llanila boshlandi. “Milliy global axborot infratuzilmasi” tushunchasi AQSh milliy ilmiy fondning mashhur konferensiyasidagi B. Klinton va A. Gorning mashhur hisobotlaridan so‘ng ilmiy va ommaviy muomalaga kiritildi. (Bu ma’ruza saylov oldi kampaniyasi jarayonida e’lon qilingan va qaysidir ma’noda B.Klintonning prezidentlikka, A.Gorning esa vitse-prezidentlikka saylanishlarida muhim omillardan bo‘lgan). Shu yillarda “axborot jamiyati” yoki “axborotlashgan jamiyat” tushunchasi Yevropaning eng obro‘li ekspertlaridan biri Martin Bangemann (1995-1999 - yillarda Yevropa Ittifoqining sanoat, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha komissari) boshchiligidagi axborot jamiyati dasturlari bo‘yicha Yevropa komissiyasi ekspert guruhining ishlarida paydo bo‘ldi.

XX asr oxirida “axborot jamiyati” va “axborotlashtirish” atamalari nafaqat axborot sohasidagi mutaxassislarning leksikonida, balki